



ARTICLE INFO

Received: 11st October 2022
Accepted: 20th October 2022
Online: 31st October 2022

KEY WORDS

Meva-sabzavotchilik, global oziq-ovqat muammosi, boy va tabiiy resurslar, iqtisodiyot, raqobatdoshlik.

Ma'lumki, mamlakatimizdagi mavjud tabiiy-iqlim sharoiti qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, xususan, meva-sabzavotchilikni barqaror rivojlantirish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan sohani bozor munosabatlariga o'tish jarayonida meva-sabzavotchilikni rivojlantirishga ustuvor yo'nalishlar sifatida katta e'tibor qaratilmoqda. Zero, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini tashqi bozorlarda sotish hisobiga mamlakat valyuta tushumining sezilarli qismi shakllanayotganligi ham sohani tubdan isloh qilish va jadal rivojlantirishning ustuvorligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasining

MEVA-SABZAVOT MAXSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Xuramov Suxrob Abdusamad o'g'li

Termiz davlat universiteti

Axborot texnologiyalari fakulteti

kafedrasi o'qituvchisi

E-mail: amaliysuxrob@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7269494>

ABSTRACT

Mazkur maqolada dunyoda global muammolardan biri bo'lgan oziq-ovqat va meva-sabzavotchilikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy, nazariy va amaliy ishlar Surxondaryo viloyati misolida yoritilgan. Bundan maqsad viloyatning boy va unumdor yerlari, qulay geografik joylashuvidan unumli foydalanish vas hu asnoda viloyatning iqtisodiyotini yanada rivojlantirishdir. takomillashtirish bilan bog'liq muammolar yoritilgan. Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish va uning assortiment tuzilmasini takomillashtirishning eng yuqori omillaridan biri ozuqaviy qo'shimchalarni mintaqamizda mavjud tabiiy xom ashyo zaxiralarini qayta ishlash asosida keng assortimentini tayyorlashni amalga oshirishdir. Misol uchun, shirin yaxna ichimliklar ozuqaviy qo'shimchalarning asosiy qismi chetdan valyuta hisobiga keltirilayotgan sun'iy xom ashyolar yordamida tayyorlanmoqda.

janubiy va quyoshli viloyati bo'lgan Surxondaryo viloyati ana shunday tabiiy va boy resurslarga egadir. Jahonda qishloq ho'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari global muammo bo'layotgan bir davrda Surxon vohasida oziq-ovqat va meva-sabzavotchilikni keng rivojlantirish, eksport salohiyatini yanada oshirish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning yanvar oyida xorijga meva va sabzavotlar eksport qilgan hududlar:

Surxondaryo viloyati – 14,4 ming tonna,
Samarqand viloyati – 11,7 ming tonna,
Buxoro viloyati – 8,1 ming tonna, Toshkent



viloyati – 7,4 ming tonna, Xorazm viloyati – 6,8 ming tonna, Farg'ona viloyati – 6 ming tonna, Andijon viloyati – 5,7 ming tonna, Qashqadaryo viloyati – 3,9 ming tonna, Qoraqalpog'iston R. – 3,8 ming tonna, Namangan viloyati – 3,4 ming tonna, Toshkent shahri – 3,2 ming tonna, Jizzax viloyati – 2,4 ming tonna, Sirdaryo viloyati – 1,8 ming tonna, Navoiy viloyati – 76,8 tonna natijaga erishilgan va Surxondaryo viloyati yetakchi o'rinda turadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari 36 mlnga yaqinlashdi. Aholining 50% dan oshiqrog'i shaharlarda yashamoqda. Mava-sabzavotlarga bo'lgan talab esa kun sayin oshayapti. Shu boisdan, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini nobud qilmay qayta ishlash, mavsumiyligini uzaytirish ham foydalanilmagan imkoniyatlardan biridir. Yangiligicha saqlangan ho'l mevalar assortimenti mo'lligi bozorlarda shu turdagi mahsulotlarni tannarxining har yili qishki-bahorgi mavsumda sun'iy ravishda ko'tarilib ketishini oldini oladi hamda aholi ijtimoiy himoyasiga ijobiy ta'sir etib, turdosh mahsulotlar qishki mavsumdagi importiga hojat qolmaydi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish va uning assortiment tuzilmasini takomillashtirishning eng yuqori omillaridan biri ozuqaviy qo'shimchalarni mintaqamizda mavjud tabiiy xom ashyo zaxiralarini qayta ishlash asosida keng assortimentini tayyorlashni amalga oshirishdir. Misol uchun, shirin yaxna ichimliklar ozuqaviy qo'shimchalarning asosiy qismi chetdan valyuta hisobiga keltirilayotgan sun'iy xom ashyolar yordamida tayyorlanmoqda. Vaholanki, respublikamizda mavjud xom ashyo

potensialini, ho'l mevalarni qayta ishlash asosida olinishi mumkin bo'lgan raqobatbardosh, tabiiy sof ozuqaviy qo'shimchalar xom ashyo bazasi yaxna ichimliklar assortiment turkumining o'nlab yangi qirralarini ochib berishi mumkin. Shu bilan birga, viloyatlarda import xom ashyoga valyuta mablag'i bo'lmagan yuzlab turli quvvatdagi yaxna ichimliklar ishlab chiqarish korxonalari ish faoliyatini tiklash imkoniyati yaratilishi mumkin. Tahlillar natijasining ko'rsatkichiga ko'ra, meva-sabzavotchilik mahsulotlari hajmlarining yildan-yilga oshib borishi saqlash va qayta ishlash tarmog'idagi bir qator muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, sohani isloh qilishda zamonaviy innovatsion, resurs tejaydigan raqamli texnologiyalardan keng foydalangan holda tub burilishni amalga oshirishni talab etmoqda. Xususan:

- respublikada umumiy ishlab chiqarish hajmlariga nisbatan mevaning 19,9 foizi, sabzavot va poliz mahsulotlarining 6,8 foizi, uzumning 10,3 foizi sanoat korxonalarida qayta ishlanmoqda;

- yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlarini hududlarda saqlash uchun sovutgichlar bilan ta'minlanganlik darajasi 3,7 foizni (sovutish omborxonalari yil davomida bor-yo'g'i 20-22% ga mahsulot bilan ta'minlangan) tashkil etmoqda;

- mavjud sovutgichlarning aksariyati ma'nan eskirgan, texnologik jihatdan yangilanmagan, zamonaviy texnologiya va raqamli innovatsion ishlanmalar lozim darajada tatbiq etilmagan;

- soha uchun malakali kadrlar tayyorlash masalasiga innovatsion yondashuvni taqozo etmoqda. Ilg'or tajribali zamonaviy uskunalar bilan ishlash qobiliyatiga ega, qayta ishlash, saqlash yo'nalishi bo'yicha



mutaxassislar tayyorlashga yetarlicha e'tibor berilmayapti;

- saqlash va qayta ishlash korxonalarining zamonaviy-texnologik talablari va hajmlaridagi mahsulotlar bilan yetarli darajada ta'minlash masalalariga tizimli yondoshilmayapti;
- transport va logistika sohasi zamon talabidan ortda qolmoqda;
- so'nggi yillarda meva-sabzavotchilikni yuritish intensiv texnologiya asosida olib borilmoqda. Natijada qishloq xo'jaligida foydalaniladigan resurslar, jumladan, YoMM, kimyoviy vositalar (*meva-sabzavot yetishtirish uchun 255 ming tonna fosforli, 290 ming tonna azotli o'g'it yetishmaydi*) va urug'lik narxlarining ortib ketishi, qishloq aholisi daromadlarining pastligi, shuningdek, mineral o'g'itlar, kimyoviy vositalarning qo'llanilishi, og'ir texnikadan foydalanish, yer resurslari sifatining yomonlashuvi, ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Shu bois, tahlillar va BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasidagi tashkilotining (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini yig'ishtirish, tashish va saqlashdagi yo'qotishlar hajmi 22-45 foizgacha, isrofgarchiliklar esa 12-18 foizni tashkil etmoqda. Yana bir muhim masala

hududlarda yetishtirilayotgan mahsulotlar haqida xaridorlarga zarur bo'lgan ma'lumotlarni beruvchi axborot-maslahat markazlari va raqamli texnologiyalar faoliyati yo'lga qo'yilmaganligidadir. Bundan tashqari respublikada transport-logistika borasidagi mavjud muammolarni hozirgacha hal etilmaganligi mahsulotlarni saralash, qayta ishlash, qadoqlash va xaridorlarga yuborish muammoligicha qolmoqda.

Joriy yilning sentyabr oyida Qozog'istonning "TL NIKA Keden" korxonasi vakillarining Surxondaryo viloyatiga tashrifi davomida meva-sabzavot mahsulotlari eksporti bo'yicha hamkorlik kelishuviga erishildi. Xususan, Denov tumanidagi "Passion Work" hamda Sherobod tumanidagi "Sherobod Anor Impex" MCHJ tomonidan "TL NIKA Keden" korxonasi bilan 50 million dollarga teng meva-sabzavot mahsulotlari eksporti bo'yicha shartnomalar imzolandi. Bundan tashqari Termiz tumanida joylashgan "Golden Agro" issiqxonalari 100 gektar yerda joylashgan issiqxonalarga pamiyor, bodring, qovun, tarvuz va qulupnay mahsulotlari yil davomida yetishtirilmoqda va Markaziy Osiyo va Yevropa davlatlariga eksport qilinmoqda.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11.12.2019 yildagi PQ-4549-son. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tarmoqda klister va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori.
2. <https://lex.uz/docs/-4641164>
3. <https://www.agro.uz/meva-sabzavotchilik-sohasini-davlat-tomonidan-qollab-quvvatlash-tarmoqda-klister-va-kooperatsiya-tizimini-yanada-rivojlantirish-chora-tadbirlari-togrisida/>
4. <https://www.agro.uz/meva-sabzavotchilik-uzumchilik-polizchilik-va-kartoshkachilikni-rivojlantirish-boshqarmasi/>
5. <https://stat.uz>